

**YANGI O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA
INSON-JAMIYAT-DAVLAT UCHLIGIDA TIZIMLI YONDASHUVLAR**

tahlili

*Andijon "Sayyid Muhyiddin maxdum"
o'rta maxsus islam ta'lif muassasasi mudiri,
Osiyo xalqaro universiteti 2-kurs magistranti*

Maxmudov Rustam Jumanovich

Annotatsiya. Mazkur maqola "Yangi O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda inson-jamiyat-davlat uchligida tizimli yondashuvlar tahlili" mavzusida yozilgan bo'lib, kambag'allikni kamaytirishning samarali usullari va strategiyalarini o'rghanishga qaratilgan. Maqolada kambag'allikni qisqartirishda inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro aloqalar, tizimli yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Davlat siyosatining va iqtisodiyotni rivojlanishining ahamiyati, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni ta'minlash, ta'lif va sog'liqni saqlash sohalaridagi islohotlar hamda kambag'allikni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilgan dasturlar ko'rib chiqiladi. Maqola O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida yangi strategiyalarini joriy etish va kambag'allikni kamaytirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, kambag'allikni qisqartirish, inson-jamiyat-davlat uchligi, tizimli yondashuv, davlat siyosati, ijtimoiy tenglik, iqtisodiy rivojlanish, ta'lif islohotlari, sog'liqni saqlash, innovatsion strategiyalar, ijtimoiy himoya.

Аннотация. Данная статья под названием «Анализ системных подходов в сокращении бедности в Новом Узбекистане через триаду человек-общество-государство» сосредоточена на эффективных методах и стратегиях снижения бедности. В статье анализируются взаимосвязи между человеком, обществом и государством, подчеркивается важность

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

системных подходов в борьбе с бедностью. Рассматриваются государственная политика, экономическое развитие, обеспечение социальной справедливости, реформы в сфере образования и здравоохранения, а также программы по сокращению бедности. Статья предлагает внедрение новых стратегий и инновационных подходов для борьбы с бедностью в экономическом развитии Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, сокращение бедности, триада человек-общество-государство, системные подходы, государственная политика, социальная справедливость, экономическое развитие, реформы в образовании, здравоохранение, инновационные стратегии, социальная защита.

Abstract. This article, titled "Analysis of Systematic Approaches in Poverty Reduction in the New Uzbekistan through the Human-Society-State Triad," focuses on effective methods and strategies for reducing poverty. The article analyzes the interrelationships between human, society, and state, emphasizing the significance of systematic approaches in poverty reduction. It discusses the importance of state policies, economic development, ensuring social equity, reforms in education and healthcare sectors, and programs aimed at reducing poverty. The article proposes the introduction of new strategies and innovative approaches for poverty reduction in Uzbekistan's economic development.

Key words: New Uzbekistan, poverty reduction, human-society-state triad, systematic approaches, state policies, social equity, economic development, education reforms, healthcare, innovative strategies, social protection.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda aholi manfaatlariga muvofiq keladigan, ularning huquqlarini himoya qiladigan, kambag‘allikni qisqartirishga, aholi turmush darajasining muttasil o‘sib borishiga imkon beradigan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy tizimlarni amaliyatga tatbiq qilishga allohida e’tibor qaratilmoqda. Albatta, bu uzoq davom etuvchi va murakkab jarayon bo‘lib, iqtisodiy va ijtimoiy-

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

axloqiy muammolar bilan cheklanib qolmaydi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aholining yuqori turmush darajasi bilan ta’minlash, birinchi navbatda, rivojlangan iqtisodiyotga ega kuchli demokratik davlat sharoitidagina amalga oshirish mumkin.

Keyingi yillarda Prezident Sh.M.Miriziyoevning tashabbuslari bilan amalga oshirilayotgan islohotlar mutlaqo yangi bosqichga o‘tdi. “Davdat bosh islohotchi” degan tamoyil “Jamiyat islohotlarning tashabbuskori” ga transformatsiyalashdi. “Davlat-jamiyat-shaxs” uchligi tamomili aksincha, “Ison-jamiyat-davlat” uchligiga aylantirildi. Bunda inson omili ustuvor bo‘lgan davlatda “Fuqaroga xizmat qilishga yo‘nalganlik” tamoyili, “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” tamoyiliga asoslandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga yo‘llangan murojaatnomasida¹ ta’kidlanganidek, 2021 yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi - kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdir. Ushbu maqsadga erishish yo‘lida bir qator vazifalar belgilandi.

O‘tgan uch yil mobaynida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, hali qilinishi lozim bo‘lgan kupgina dolzarb masalalarga keng jamoatchilik e’tibori qaratildi. Xususan, Prezidentimiz aholining kam ta’minlangan qismiga bo‘lgan g‘amxo‘rlikni yanada kuchaytirish masalasini o‘rtaga qo‘ydi. Birinchi marta “kambag‘allik” atamasi tilga olinib, ularning mamlakatimizdagi soni 4-5 million ekanligi aytildi. Prezident mazkur masalaga yondoshishning o‘zi ham to‘g‘ri bo‘lmaganligini ro‘yi rost ta’kidlab, bu muammoning aniq echim yo‘llarini ko‘rsatib berdi. “Ba’zi odamlar, ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to‘lash yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin, deb o‘laydi. Bu bir tomonlama yondoshuv bo‘lib, muammoni to‘la echish imkonini bermaydi. Kambag‘allikni kamaytirish - bu alohida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir”², -dedi Sh.Mirziyoyev.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi (2020 yil 29 dekabr).

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi (2020 yil 29 dekabr). <https://xs.uz/uzkr/24055>

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Prezident kambag‘allikni qisqartirishning aniq dastur va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda, kambag‘allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubi, ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari va me’yoriy asoslarini puxta ishlab chiqish maqsadida qisqa muddatlarda Jahon banki, BMT Taraqqiyot dasturi, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlarining 14 nafar eksperti jalb qilindi. Mazkur ekspertlar bilan birgalikda yuqoridagi vazifalarni o‘zida qamrab olgan “2021-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasida kambag‘allikni qisqartirish konsepsiysi” ishlab chiqildi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ta’rifiga ko‘ra, qashshoqlik – insonning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan daromad va resurslar etishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to‘yib ovqatlanmaslik, sog‘liqni saqlash, ta’lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklavlarning mavjudligi, turar joyning yo‘qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytildi³.

Kambag‘allik esa insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo‘lmasligi, jamiyatda to‘laqonli ishtirok etish uchun to‘siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilasini boqishi va kiyintirishi, ta’lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta’minalash imkoniyatlari etishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo‘ladi. SHuningdek, kambag‘allik bu insonlar, uy xo‘jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligi hamda nochorligi sanaladi⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 iyundagi “Har bir oila – tadbirdor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida” PQ-3777-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagи “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5975-son [Farmoni](#), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi “Aholini tadbirdorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va

³ BMTning “Ijtimoiy himoya borasida yuqori darajadagi Butunjahon sammiti” dan.

⁴ BMT Yevropa Iqtisodiy komissiyasining “Kambag‘allikni o‘chash bo‘yicha qo‘llanma” sidan, 2017 yil Nyu-York, Jeneva.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4862-son [Qarori](#), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6098-son [Farmonlari qabul qilindi](#).

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqida bir qator tashabbuslarni ilgari surgan edi. Jumladan, kambag'allikni qisqartirish va unga qarshi kurashish masalasini BMTning navbatdagi sessiyasi asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash, shuningdek, ushbu mavzuda Global sammitni o'tkazish to'g'risidagi tashabbus jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Xususan, pandemiya ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 iyundagi "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida" PQ-3777-son [qarorini](#)⁵ bajarish doirasida respublikadagi har bir oilada tadbirkorlik bilan shug'ullanish va barqaror daromad manbaiga ega bo'lish uchun sharoitlar yaratish chora-tadbirlarini amalga oshirish belgilab berildi.

Jumladan, Buxoro viloyatida "Har bir oila tadbirkor" dasturi doirasida imtiyozli kredit evaziga 1724 nafar ishsiz aholi tomorqasida 39,3 hektar maydonda 35,7 mlrd. so'm kredit evaziga ixcham issiqxonalar qurib berilgan. SHuningdek, 5207 nafar fuqaro tomorqasida 10,6 mlrd so'm kredit mablag'lari hamda 6,6 mlrd so'm miqdordagi subsidiya hisobiga 1 sotixli duga usulidagi issiqxonalarni qurilib, ishsiz fuqaro daromad manbaiga ega bo'lgan. "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida qo'shimcha 300 mlrd so'm ajratib, ishsiz aholiga 20 ming bosh naslli qoramol etkazish va 10 ming nafar (5 foiz) aholini "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" dan chiqarish imkonini yaratilgan.

Shu bilan birgalikda, 2021 yilda imtiyozli kredit mablag'lari evaziga ishsiz aholi tomorqasida qo'shimcha 100 hektar maydonda (bir sotixining narxi 7,6 mln.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 iyundagi "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida" gi PQ-3777-son Qarori.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

so‘mdan 1-5 sotixli) ixcham issiqxona qurib, 10 ming nafar ishsiz fuqaroning bandligi ta’minlangan. “Mahallabay” o‘rganish natijasida aniqlangan ishsiz aholi talabiga asosan, 10 ming nafar oilaga markazlashgan holda, 20 ming bosh arzon narxlarda chorva etkazib berish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunga qadar ular tomonidan 4628 ta oilalarga 9897 bosh chorva mollari tarqatilgan.

Odamlarni rozi qilish ma’naviy kamolotning bilvosita avval insonlararo, keyin jamoalararo, provard natijada butun jamiyat miqyosida ma’naviy muhitini barqarorlashuvini asoslovchi nazariya. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”⁶ gi farmoni, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus, Prezidentning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomalari, Prezidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72 hamda 75 sessiyalaridagi ma’ruzalari, Prezidentimizning 2021 yil 21–yanvarda o‘tkazgan Republika ma’naviyat va ma’rifat Kengashida so‘zlagan nutqi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishi, “1+1 – bir tadbirkorga bir ishsiz yosh” dasturi, “1+10 – Bir nuroni o‘n yoshga ma’naviy murabbiy” va boshqa tashabbuslari mamlakatimiz ma’naviy muhitining o‘ziga xos tarzda shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagи “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5975-sон Farmoniga⁷ muvofiq, samarali makroiqtisodiy siyosatni yuritish, barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali viloyatda kambag‘allikni qisqartirish borasida maqbul siyosatni amalga oshirish tizimi joriy etilmoqda.

Birgina Buxoro viloyatda tadbirkorlar tomonidan umumiyligi qiymati 445,1 mlrd. so‘mlik 120 ta loyihalarni amalga oshirish hamda 15142 nafar fuqarolarni

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sон Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagи “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5975-sон Farmoni.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bandligini ta'minlash ko'zda tutilmoqda. Tegishli tijorat banklariga mahallarni rivojlantirish uchun jami qo'shimcha 293,2 mlrd.so'm, shundan har bir oilatadbirkor dasturi doirasida 144,7 mlrd.so'm va boshqa tijorat banklari resurs mablag'i hisobidan 148,5 mlrd.so'm mablag' ajratish rejallashtirilayotganligi aholi turmush farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Kichik ishlab chiqarishni qo'llab quvvatlash maqsadida viloyatning 13 ta shahar va tumanlarning 98,8 hektar (512 ta "lot"larga ajratilgan er maydonlari 81,5 hektar) er maydoni hududida 28 ta kichik sanoat zonalari tashkil etilgan bo'lib bugungi kunda faoliyat ko'rsatmoqda. Faoliyat ko'rsatayotgan 28 ta kichik sanoat zonalarida umumiyligi 1,0 trln.so'mlik investitsiya kiritish evaziga 6052 ta yangi ish o'rinni yaratish sharti bilan 217 ta tadbirkorlik sub'ektlariga 59,9 hektar (364 ta "lot"larga ajratilgan er maydonlari) bo'sh er maydonlari ajratilgan.

Xususan, birgina Buxoro viloyati aholisini bandligi ta'minlash borasida bir qator ishlar olib borilib, joriy yilning yanvar-iyun oylarida bandlik tizimidagi barcha yo'nalishlar bo'yicha 42725 nafar ish bilan band bo'limgan fuqarolar bandligi ta'minlanib, bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan 27,9 mlrd. so'm ajratildi. Jumladan:

- 12574 nafar ish bilan band bo'limgan fuqarolar bo'sh ish o'rinnariga ishga joylashtirilgan;
- 8368 nafar ishsiz fuqarolar turli kasblarga o'qitish uchun yuborilib, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hisobidan 3347 mln. so'm sarflangan;
- 7727 nafar fuqarolar haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilinib, Jamoat ishlarini jamg'armasi mablag'laridan 10081 mln. so'm xarajat qilingan;
- 2578 nafar fuqarolar ishsiz deb e'tirof etilib, bu maqsadlarda 4396,0 mln. so'm sarflangan;
- 2966 nafar ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholi qatlamlari kvotalangan ish o'rinnariga ishga joylashtirilgan;
- 83 nafar ishsizlarning kasbga o'qitish xarajatlarini qoplash uchun 8 ta korxonaga 132,6 mln. so'm miqdorida subsidiya ajratilgan;
- 50 nafar ishsizlarni 1 ta kooperativga jalb qilish uchun 122,5 mln.so'm

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

miqdorida subsidiya ajratilgan;

- 28 nafar ishsizlarni kvotadan ortiq ishga qabul qilingan fuqarolar uchun 12 ta korxonaga 26,8 mln. so‘m miqdorida subsidiya ajratilgan;

- 238 nafar fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish uchun 95,8 mln. so‘m miqdorida subsidiya mablag‘lari ajratilgan;

- 4000 ta ehtiyojmand oilaga DUGA usulida issiqxonalar qurilib, Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasidan 4279,5 mln. so‘m miqdorda mablag‘ moliyalashtirilgan.

Aholini tadbirkorlikka o‘rgatish, kasbiy malakasini oshirish orqali kambag‘allikni kamaytirish eng asosiy masala hisoblanadi. Bu borada ham viloyatda keng tizimli tadbirlar amalga oshirildi.

Kambag‘allikni qisqartirish, aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, kambag‘allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil insonning intilishi, o‘z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo‘lishi lozim.

Murojaatnomada Prezidentimiz ta’kidlagan mazkur fikrni to‘laroq anglab olish uchun 2017 yilgacha bo‘lgan holatni tahlil qilish joizdir.. Ilgari, ya’ni 1992 yildan boshlab 25 yil mobaynida subsidiar siyosat (subsidiar siyosat imkoniyati cheklanganlar, etim bolalar, o‘ta kam ta’minlangan oilalarga davlat tomonidan faqat moddiy yordam berish tartibi bo‘lib, moliyaviy ko‘mak olgan shaxslar davlat yoxud jamiyat tashkilotlariga biror bir tayinli hisob bermasligi va javobgarlik mas’uliyatini zimmasiga olmasligini ifodalovchi holatni anglatadi) yurgizilib kelingan. Bu siyosat jahonda aholining faqat moddiy ehtiyojlarini qoplashga yo‘nalgan xarajatlar bo‘lgani uchun insonga va biror bir soha rivojiga “foyda keltirmaydigan xarajatlar” deb qaraladi. Subsidiar siyosat bo‘yicha davlat tomonidan qilinuvchi xarajatlar ko‘p hollarda ijtimoiy dangasalikka ya’ni, ko‘pchilik aholining ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmaslikka o‘rganib qolishiga, tekin eb ichishga ko‘nikishga va mehnat bozorini rivojlantirishga o‘z takliflari bilan ishtirok etmaslikka odatlanib

qolishiga olib keladi.

O‘zbekistonda shu davrda amalga oshirilib kelingan subsidiar siyosat dunyodagi aholini ijtimoiy qo‘llash faoliyatini tartibga soluvchi asosiy xalqaro hujjat mazmuniga ya’ni, – 1962-yildagi Xalqaro Mehnat Tashkiloti Konvensiyasiga mos kelmagan. Konvensiya hujjatida “har qanday ijtimoiy ko‘mak berish fuqarolarni ijtimoiy, intellektual yoki kasbiy rivojlantirish uchun rag‘batlantirishga yo‘nalgan bo‘lishi kerak”, deb belgilab ko‘yilgan.

Shu boisdan ham Prezidentimiz mazkur muammo yechimining eng to‘g‘ri va maqbul yo‘lini, ya’ni har bir insonni tanlagan sohasi dagi bilimlarini yuksaltirish, malakali kasb-hunar o‘rgatish, yoshlarni ustozlarga biriktirib tajriba orttirish mexanizmi eng to‘g‘ri yo‘l ekanligini ko‘rsatib berdilar. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan millatimiz sha’ni va xarakteriga mos kelmaydigan kambag‘allikdan xalos ettirishdan iborat bugungi ijtimoiy siyosat endilikda Xalqaro Mehnat Tashkiloti qoidalariga to‘la mos keladi va uning pirovard maqsadi insonni kasbiy yoki intellektual jihatdan rivojlantirish orqali uni baxtli va boy-badavlat qilishdir. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish jaroyonlariga davlat e’tibori yuksalganligini bugungi kunda butun dunyo e’tirof etmoqda. Ammo bu jarayonga jamiyat e’tiborini kuchaytirish, inson tomonidan o‘zini o‘zi rivojlantirish holatini tubdan isloh etish, inson kapitalini takomillashtirish bugungi kunda juda dolzarb masalalar sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 40 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
3. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-406-son Qonuni. 2016 yil 14 sentyabr // Xalq so‘zi. – Toshkent, 2016. – № 182 (6617). – B. 1-2.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2020 yil 25 yanvar, 1-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 iyundagi “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida” gi PQ-3777-son Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5975-son Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020 yil 30 oktyabrdagi PF-6098-son Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalg qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4862-son Qarori.
11. Shayx Abdulaziz Mansur. “Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri”. T.: TIU. 2012.
12. Imom Buxoriy. Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to‘plam) Abdulg‘ani Abdulloh tarjimasi. –T.: Qomus, 1992
13. Abu Rayhon Beruniy. 100 Hikmat. Ibratli so‘zlar. T.: Fan, 1993.
11- bet.
14. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi, 1993.
15. Abulqosimov H.P., Hasanov R.R. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar. –T.: Akademiya, 2010. -216 b.
16. Abu Homid G‘azzoliy. Mukoshafat–ul Qulub (Qalblar kashfiyoti) Toshkent: Adolat, 2002.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

17. Abdullaev A. va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. Toshkent: Fan va texnologiya. 2005.-B. 5.
18. Abdullayeva M.K. Ijtimoiy himoya va uni tartibga solishni takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2008, 25 b.
19. Aflatun. Qonunlar. Rus tilidan Urfon Otajon tarjimasi. – Toshkent: YAngi asr avlodи, 2002, - B. 95.
20. Avesto. // Tarixiy–adabiy yodgorlik / Asqar Mahkam tarjimasi. - Toshkent: Ma’naviyat, 2001. – B. 166.
21. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq.–T.:O‘qituvchi, 1992.–160 b
22. Al-Buxoriy Imom Ismoil. Al-adab al-mufrad. – T.: O‘zbekiston, 1990. – 198 b.
23. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT. T.14. –Toshkent: Fan, 1998. – B. 12.
24. Alisher Navoiy. Hayratul-abror – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.